



## 2020- yilning yanvar-iyul oylari uchun Navoiy viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Navoiy viloyatida jami **2 360,4** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **100,1 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni,  
2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda**

2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1,5 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 mingtaga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **119,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,2 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **116,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,1 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **144,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,7 %**) o'sishidir.



**Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.08.2019- yil	01.08.2020- yil	
	Navoiy viloyati	1183	1527	129,1
	Navoiy sh.	400	417	104,3
	Zarafshon sh.	88	121	137,5
	tumanlar:			
	Karmana	199	251	126,1
	Konimex	30	39	130,0
	Qiziltepa	151	225	149,0
	Navbahor	94	181	192,6
	Nurota	72	98	136,1
	Tomdi	25	39	156,0
	Uchquduq	42	58	138,1
	Xatirchi	82	98	119,5


Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
01.07.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (27,3 %), Karmana (16,4 %) va Qiziltepa (14,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **542,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **79,3** % ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **6,0** % punktga kamayib, **23,0** % ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **62,9 %** i yoki 2019- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **64,2 %**), Navoiy shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,8 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **170,0 %**), va Qiziltepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,7 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **66,7 %** ) ga to'g'ri keldi.




**Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **54,2 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan **6,5 %** punktga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **113,7 %** ni tashkil etgan holda **1 280,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **22,8 %** ni tashkil etdi yoki **537,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **98,2 %** ni tashkil etdi*

Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **507,8** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 852,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **21,5 %** va **78,5 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**2020- yilning yanvar-iyul oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 360,4</b>	<b>507,8</b>	<b>100,0</b>	<b>1852,6</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	609,1	103,9	20,5	505,2	27,3
Zarafshon sh.	555,9	354,1	69,7	201,8	10,9
tumanlar:					
Karmana	237,7	6,7	1,3	231,0	12,5
Konimex	56,6	-	-	56,6	3,1
Qiziltepa	386,0	13,7	2,7	372,3	20,1
Navbahor	146,1	4,1	0,8	142,0	7,7
Nurota	108,2	3,1	0,6	105,1	5,7
Tomdi	45,8	13,5	2,7	32,3	1,7
Uchquduq	35,2	3,0	0,6	32,2	1,7
Xatirchi	179,8	5,7	1,1	174,1	9,4

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2020- yil yanvar-iyul

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 69,2 % i yoki **1 633,0** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

69,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **483,4** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 29,6 % ni tashkil etdi

29,6 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **706,7** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 43,3 % ni tashkil etdi.

43,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **442,9** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 27,1 % ni tashkil etdi.

27,1 %




**2020- yilning yanvar-iyul oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 360,4</b>	<b>100,1</b>	<b>1633,0</b>
Navoiy sh.	609,1	100,2	563,4
Zarafshon sh.	555,9	100,0	93,1
tumanlar:			
Karmana	237,7	100,1	181,3
Konimex	56,6	100,0	16,3
Qiziltepa	386,0	100,0	341,3
Navbahor	146,1	100,3	143,7
Nurota	108,2	100,1	111,0
Tomdi	45,8	100,1	13,1
Uchquduq	35,2	100,3	29,4
Xatirchi	179,8	100,1	140,4

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **22,2 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,8 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **8,3 %** punktga ko'payib, **47,9 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,5 %** punktga kamayib, **29,9 %** ni tashkil etdi.


*ulushi, % da*



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **30,2 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **10,1 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **69,8 %** (**10,1 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **19,1 %** punktga kamaydi va **19,8 %** ni tashkil etdi. Qolgan **80,2 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **19,1 %** punktga ko'paydi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-iyul oylarida**

*mlrd. so'm*


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 360,4</b>	<b>1796,3</b>	<b>307,1</b>	<b>257,0</b>
Navoiy sh.	609,1	539,4	33,9	35,8
Zarafshon sh.	555,9	428,1	48,9	78,9
tumanlar:				
Karmana	237,7	164,5	41,6	31,6
Konimex	56,6	45,8	10,3	0,5
Qiziltepa	386,0	193,4	120,8	71,8
Navbahor	146,1	120,5	13,9	11,7
Nurota	108,2	92,6	7,7	7,9
Tomdi	45,8	19,7	17,5	8,6
Uchquduq	35,2	24,2	7,3	3,7
Xatirchi	179,8	168,1	5,2	6,5

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



**Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari**

**Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da**




**Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da**




Joriy yilning yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Xatirchi tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 93,5 % i yoki **168,1** mlrd. so'm), shuningdek, Navoiy shahari (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 88,6 % i yoki **539,4** mlrd. so'm), Nurota tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 85,6 % i yoki **92,6** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 38,2 % i yoki 17,5 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 31,3 % i yoki 120,8 mlrd. so'm), Uchquduq tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 20,7 % yoki 7,3 mlrd. so'm) da qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi,  
jamiga nisbati, % da**




**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,  
jamiga nisbati, % da**




Joriy yilning yanvar-iyul oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 18,8 % i yoki 8,6 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 18,6 % i yoki 71,8 mlrd. so'm), Zarafshon shahari (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 14,2 % i yoki 78,9 mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Navoiy sh. (609,1 mlrd. so'm), Zarafshon shahar (555,9 mlrd. so'm), Qiziltepa (386,0 mlrd. so'm), Karmana (237,7 mlrd. so'm) viloyatiga to'g'ri keladi.





**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo`limi**

**Tel.: 71 202-84-46;  
79 223-54-73**